

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI BOSHQARUVIDA ICHKI AUDIT ZARURATI

**N.Qo‘chqorov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Q.Majidov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**O.N.Xaitov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada investitsiyalarni boshqarish samaradorligi masalalaridan - investitsion faoliyatni boshqarishning yangi usullari va shakllarini izlab topish bilan bog‘liqdir. Investitsiyalarni strategik boshqarish doirasida ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Korxonaning nazorat tizimida ichki audit eng ishonchli va samarali tizim hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, risk, audit, xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog‘ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jang‘armalari

Jahon globallashuv jarayonining tobora chuqurlashib borishi, raqobatning keskinlashuvi va innovatsion darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga talabning ortib borishi sharoitida investitsiyalardan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda va dolzarb hisoblanadi. Shu borada, 2026 yilgacha mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Sarflangan har bir so‘m investitsiya odamlarimizga uch baravar ko‘p foyda keltirishi, ularning daromadini oshirishga xizmat qilishi kerak”<sup>39</sup> degani investitsiyalar va ushbu maqsadda yo‘naltirilayotgan mablag‘lar hisobi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni boshqarish samaradorligi masalalaridan - investitsion faoliyatni boshqarishning yangi usullari va shakllarini izlab topish bilan bog‘liqdir. Investitsiyalarni strategik boshqarish doirasida ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Korxonaning nazorat tizimida ichki audit eng ishonchli va samarali tizim hisoblanadi. Ichki audit – korxonada mavjud nazorat tizimining ishonchli va samarali ekanligini ta‘minlaydi. Ushbu jarayonida korxonaning raxbariyati samarali ichki nazorat tizimini yaratish va ta‘minlash uchun mas‘uldir. Ichki auditning bosh maqsadi – korxonaning menejerlariga o‘z vazifalarini samarali bajarishda ko‘maklashadi, uning aktivlari va bo‘linmalari oldida turgan maqsad va vazifalariga erishish uchun sarflanayotganligiga etarli ishonchni ta‘minlashga qaratiladi.

Investitsiyalar samaradorligi auditining asosiy vazifasi faoliyat maqsadlariga eng natijaviy, tejamli va mahsuldor yo‘l bilan erishilishini ta’minlashdan iboratdir.

Yuqoridagi keltirilgan muhokama vazifalarini investitsiyalar samaradorligi auditining asosiy maqsadlari va ularning mohiyati 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval.

#### Investitsiyalar samaradorligi auditining asosiy maqsadlari va ularning mohiyati

| Investitsiyalar samaradorligi auditining maqsadi | Mohiyati  |
|--|---|
| Tejamkorlikni baholash va ta’minlash             | Baholash ko‘rsatkichlar tizimi yordamida korxonada mavjud bo‘lgan barcha turdagi resurslarga (jismoniy, moliyaviy, inson, axborot va b.) nisbatan amalga oshiriladi. Uning asosida talab etilayotgan sifatni hisobga olgan holda sotib olingan va foydalanilgan resurslarning xarajatlarinikamaytirish choralari ishlab chiqiladi.<br>Agar resurslarni sotib olish, mahsulotlarni ishlabchiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko‘rsatish mos miqdorda minimal qiymat bo‘yicha amalga oshirilayotgan bo‘lsa, baholanayotgan operatsiya tejamkor deb tan olinadi. |
| Hosildorlikni baholash va ta’minlash             | Hosildorlikni baholash faoliyat foydali mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanishni ta’minlashinianiqlashga asoslanadi.  |
| Natijaviylikni baholash va ta’minlash            | Faoliyatning rejadagi natijaga maksimal darajada erishishni ta’minlayotgani baholanadi.   |

1-jadvalda ko‘rsatilganidek, investitsiyalar samaradorligi auditi faoliyatning tejamkorligi, hosildorligi va natijaviyligiga erishish, mavjud investitsion va moliyaviy resurslardan foydalanishni rejalashtirish, baholash, ruxsat berish va nazorat qilishda foydalanish bo‘yicha mos chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Ushbu choralarni belgilash va ularning samaradorligini kafolatlash boshqaruv va rahbariyatning vazifasi hisoblanadi. Odatda bu chora-tadbirlarni amalga oshirish ichki audit xizmatiga yuklanadi, uning tayinlanishi rahbariyatga qabul qilingan chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilishga, belgilangan chora-tadbirlarga to‘liq rioya qilish hamda narh va sifatning belgilangan muvofiqligiga erishish uchun etarlicha asoslarni ta’minlab bera olishini kafolatlay oladigan ichki tizimlar va jarayonlarni belgilashga ko‘mak beradi. Tashqi auditor tekshirilayotgan korxonaning boshqaruv organlari yoki rahbariyatidan qat’i nazar, bunday chora- tadbirlar ishlab chiqilganligini, amalga oshirilganligini va kompaniyaning samarali faoliyatini ta’minlay olganligini tekshiradi.

Investitsiyalarni boshqarish auditi – O‘zbekiston Respublikasi uchun nisbatan yangi vaziyat. Xorijiy davlatlar tajribasi ko‘rsatishicha, ohirgi yillar davomida g‘arb korxonalarida investitsion risklarni boshqarish tizimini tashkil etishga bo‘lgan yondashuv o‘zgarib bormoqda. Risklarni boshqarishning yangi modeli faol kirib kelmoqda, ya’ni butun korxonada doirasidagi risk – menedjment (enterprise – wide risk management).

Investitsiyalar va investitsion risklarni boshqarish masalalarida ham ichki auditning roli yuqori. «Risklarni aniqlash va ularni boshqarish qobiliyati bugungi kunda biznes olamidagi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Korxonaning umumiy faoliyati doirasida risklarni

boshqarish va nazorat tartib-qoidalarini jalb qilish sohasidagi chora-tartiblar integratsiyasi bo'yicha qo'llanilayotgan harakatlar ichki audit xizmatlariga o'z rolini o'zgartirgan holda, risklarni boshqarish sohasini qamrab olib hamda korxonaga uchun strategik jihatdan yanada ahamiyatliroq o'rinni egallash imkoniyati yaratilmoqda»<sup>40</sup>.

Samaradorlik auditida eng keng foydalaniladigan indikatorlarni 2-jadvalda ko'rish mumkin.

### Investitsiyalar daromadliligining asosiy indikatorlari

| Indikator turi  | Indeksning mazmuni va tuzilishi  |
|---|--|
| Xarajatlarning daromadlilik indeksi                           | Naqd pul tushumlari yig'indisining (jamg'arilgan tushumlar) naqdpul chiqimlari yig'indisiga (jamlangan to'lovlar) nisbati  |
| Diskontlashtirilgan xarajatlarning daromadlilik indeksi       | Diskontlashtirilgan pul tushumlari yig'indisining diskontlashtirilgan pul chiqimlari yig'indisiga nisbati  |
| Investitsiyalar daromadliligining indeksi                     | Operatsion faoliyatidan pul oqimi elementlari yig'indisining investitsiya faoliyatidan pul oqimlari elementlari yig'indisining absolyut kattaligiga nisbati. U sof daromadning jamg'arilgan investitsiyalar xajmiga nisbatining bir birlikka oshirilganiga teng  |
| Diskontlashtirilgan investitsiyalar daromadliligining indeksi | Operatsion faoliyatdan pul oqimi diskontlashtirilgan elementlari yig'indisining investitsiya faoliyatidan pul oqimlari elementlari diskontlashtirilgan yig'indisining absolyut kattaligiga nisbati. Diskontlashtirilgan investitsiyalar daromadliligining indeksi sof diskontlashtirilgan daromadning jamg'arilgan diskontlashtirilgan investitsiyalar xajmiga nisbatining bir birlikka oshirilganiga teng |

Turli samaradorlik ko'rsatkichlari ichida investitsiyalarning ichki audit samaradorlik ko'rsatkichlari alohida o'rinni egallaydi. Samaradorlik – bu ma'lum vaqt oralig'ida loyihani amalga oshirish natijalarining unga ketgan xarajatlaridan oshib ketishini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni bildirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Investitsiya loyihani amalga oshirish davriga tegishli bo'lgan samaradorlik ko'rsatkichlaridan integral samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Integral samaradorlik ko'rsatkichlari auditor tomonidan quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- loyihani amalga oshirish yoki unda ishtirok etishning foydaliligini baholash;
- loyihani samarali amalga oshirishning chegaraviy shartlarini aniqlash;
- loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni baholash;
- bozor kon'yukturasi va boshqa tashqi omillarning tasodifiy o'zgarishi ta'sirida loyiha barqarorligini (uning rentabelligi va moliyaviy imkoniyatlarini saqlab qolishni) baholash;
- cheklangan miqdordagi pul resurslarida muqobil loyihalar (loyiha variantlaridan) bittasini yoki berilgan ro'yhatdan bir guruh mustaqil loyihalarni tanlash natijalariga iqtisodiy baho berish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonuni.

2. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: 2022 y.

3. Abdullaev A., Ochilov O. Faol investitsiya siyosati sharoitida investitsiyalar hisobi va

tahlili: zarurat, maqsad va vazifalar.// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021 yil.  
– T.:2020.

4. Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.:, 2016 y.